
Farg'onada Viloyat hududiy agroxizmatlar markazi ish boshlaydi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahridagi al-Farg'oniy ko'chasida sobiq akademik litsey bino va inshootlari rekonstruktsiya qilinishi hisobiga amalga oshirilayotgan, qiymati 39,2 milliard so'm bo'lgan viloyat hududiy agroxizmatlar markazi loyihasi bilan tanishdi.

Jahon bankining kredit loyihasi bilan barpo etilayotgan, joriy yil oktyabr oyida qurilish-ta'mirlash ishlari yakunlanishi ko'zda tutilgan mazkur agroxizmatlar markazi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi (AKIS) negizida amalga oshirilmoqda.

Markazda xizmatlar "yagona darcha" tamoyili asosida olib borilib, fan-ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash (ekstenshn) orqali ijobiy natijalarga erishiladi. Onlayn va "call-center" orqali xizmat ko'rsatilib, xalqaro sifat standartlari joriy etiladi. Shuningdek, markazda V2V shaklidagi muzokaralar joyi, savdo va demo maydonlar hozirlanib, tadbirkor va ishbilarmonlarga qulaylik yaratiladi.

2022-09-27 16:18:21